

## OYBEKNING “NAVOIY” ROMANIDA XARAKTER VA KONFLIKT MASALASI

Odilova Sadoqat Abduqodir qizi

Andijon davlat universiteti 2-bosqich magistranti

<https://doi.org/10.5281/10.5281/zenodo.6557860>

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada Oybekning “Navoiy” romanidagi xarakter va konflikt masalasini o’rganiladi. Muallif xarakter yaratishda nimalarga asoslanganligi, badiiy to’qima obraz va tarixiy shaxslar xarakterini ifodalashda qanday unsurlardan foydalanganligi tahlil ostiga olinadi. Konfliktlarning asardagi vazifasi va voqealar rivojidagi ahamiyatiga e’tibor qaratiladi.

**Kalit so’zlar:** Navoiy obrazi, xarakter, konflikt, tarixiy shaxs, badiiy to’qima, asar tili, individual nutq.

O’zbek adabiyotining kechasi, buguni va ertasi haqida fikr yuritar ekanmiz, ko’z oldimizda beixtiyor buyuk siymo – Alisher Navoiy gavdalanadi. Faqatgina adabiyot emas, balki butun millat qiyofasi Alisher Navoiy dahosi bilan bevosita chambarchas bog’liq. Shuning uchun ham Navoiyni anglash, uning hayot yo’lini, adabiy merosini o’rganish, undan bahramand bo’lish har bir insonning ko’ngil ehtiyojiga aylangan. Shu bilan bir qatorda buyuk shoir, mutafakkir ijodini o’rganish, tadqiq qilish orqali o’zbek adabiyotining taraqqiyot tamoyillari, o’ziga xos xususiyatlari ochib beriladi. Shu sababli ham ko’plab adiblarimiz buyuk Navoiy siymosini o’z asarlarida tarannum etganlar. Alisher Navoiydek buyuk siymoga bag’ishlab turli janrlarda asarlar yaratilgan. Oybekning “Alisher Navoiy”, Uyg’un va Izzat Sultonning “Alisher Navoiy”, Isajon Sultonning “Alisher Navoiy”, Omon Muxtorning “Ishq ahli” kabi romanlari shular jumlasidandir. Bu asarlar orasida Oybekning “Navoiy” romani alohida ajralib turadi. Xattoki Ozod Sharafiddinov ham o’z maqolalaridan birida XXI asrga o’ta oladigan asarlar qatorida birinchi o’rinda “Navoiy” romanini e’tirof etadi.

Barcha badiiy asarlar kabi tarixiy-biografik romanlarning badiiyati nulardagi obraz va xarakterlarning qay darajada mukammal yaratilganligi bilan bog’liqdir. Ayniqsa, tarixiy mavzudagi asarlardav obrazlarning to’laqonliligi alohida ahamiyatga ega. chunki bunday asarlardagi qahramonlar zamonaviy mavzudagi asar qahramonlariga qaraganda har holda o’quvchidan uzoqroq. Kitobxon zamondoshlari obrazlarining ayrim xatti-harakatlarini yozuvchining izohisiz ham anglay olsa, umuminsoniy xususiyatlarning barcha davrlar uchun xosligiga qaramasdan, o’tmishda, o’zidan oldingi davrlarda yashagan qahramonlarni anglash va tushunish obrazlarning o’ta mukammal, to’laqonli bo’lishiga ehtiyoj sezadi. Rus



yoʻzuvchisi Tolstoy “Tarixiy asrda asosiy narsa nima” degan savolga “bu maʼlum tarixiy jarayonda shaxs xarakterining shakllanish masalasi”, -deb javob bergan edi.<sup>1</sup> Garchi keying davrlar adabiyotidagi tarixiy-biografik romanlarda qahramonning tugʻilishidan to oʻlimiga qadar tasvirlashdan koʻra uning hayoti va faoliyatidagi eng muhim davr uzib olinib, shu asosda murakkab xarakterlar yaratish va ular orqali tarixiy sharoit va jamiyat hayotining mohiyatini ochib berishga intilish kuchayib bormoqda.

Navoiy va Oybek... bu ikki siymoni besh asrlik davr daryosi ajratib turadi. Ammo Oybek butun umr qilgan ijodiy mehnati sababli u bilan yonma-yon turish Navoiy sochgan durlarni yigʻib, soʻng aks ettirish baxtiga sazovor boʻlgan. Navoiy va uning ijodini oʻrganish ustoz Oybekka qadar ham amalga oshirilgan. Navoiyxonlar ulugʻ shoir asarlariga mehr qoʻyib, ularning magʻzini chaqishga, undan olam-olam zavq olishga harakat qilganlar. XX asrning 20-yillariga kelib esa, Navoiy yashagan davrni, Navoiy ijodini ilmiy oʻrganish boshlandi. Navoiy haqidagi dastlabki maqolalar eʼlon qilindi. Oradan oz fursat oʻtib, Navoiyshunoslar safiga Oybek ham qoʻshildi. Oybek Navoiy ijodini butun borligʻi, ong-u shuuri bilan oʻrganishga harakat qildi. Hozirda Oybek uy-muzeyida “Navoiy haqidagi ilmiy ishlarga tayyorgarlik”, “Sharq hayoti va adabiyotiga oid tadqiqotlar ustidagi ish” deb nomlangan bir nechta daftar saqlanadi. Agar ularni varoqlasangiz, yoʻzuvchi Sharofiddin Ali Yazdiydan tortib, Koshifiy-u, Klavixogacha oʻqib-oʻrganilganligini koʻrish mumkin. Bu izlanishlar Oybekka Alisher Navoiy haqida bir necha yirik asarlar yaratishga asos boʻlib xizmat qildi. Jumladan, ulardan eng salmoqlisi “Navoiy” romani hisoblanadi. Ushbu roman buyuk mutaffakir haqida dunyo adabiyotidagi ilk yirik nasriy asar hisoblanadi. Bu romanga qadar Oybek Navoiy haqida bir qancha izlanishlar olib borib, sheʼr, dostaon va ilmiy maqolalar yaratgan boʻlishiga qaramay, ijodkorning ulardan koʻngli toʻlmagan, qalbidagi fikrlarini toʻlaligicha qogʻozga toʻkib bitmagan edi. Bu yirik asarda esa, daho ijodkorning shaxsiyati, rihiyat dunyosi, ichki olami, adabiyot va shoirlarga boʻlgan munosabati butun serqirraligi bilan namoyon boʻldi. Muallif faqat buyuk Navoiyning ijodi va shaxsiyatinigina emas, balki shoir yashagan tarixiy-ijtimoiy davr, siyosiy sharoit hamda u bilan muloqotda boʻlgan olim va shoirlar haqida ham puxta oʻrganib chiqadi. Bu esa asarning yanada tabiiyligini, ishonarli va hayotiy boʻlishini taʼmin etadi. Shuningdek, romanda buyuk shoirning siyosiy arbob, uzoqni koʻra oluvchi donishmand, tadbirkor, har qanday holatda ham eʼtiqodida mustahkam turuvchi iymonli shaxs ekanligi yorqin tasvirlangan. Uning harbiy ishlarda ham bilgirlik qilib, zamon hukmdori Husayn Boyqaroga maslahatlar berishi jonli misollar bilan ifodalangan. Shoirning qalbidagi gʻayrat va dovyuraklikning yorqin namunasini Yodgor Mirzo qarorgohiga yolgʻiz borishga qaror qilganligidan ham koʻrishimiz mumkin. Asarda shoirning oʻta kamtar va shu bilan birga oʻz qadrini biladigan shaxs ekanligi

<sup>1</sup> Толстой А.О. литературе. –М.Художественная литература. 1956. С-447.



lavozimdor shaxs sifatida ilki muhr bosishida ham o'z aksini topadi. Navoiyning cheksiz adolati, ulusning ahvolini yengillatish, el-yurtning g'amxo'rliqi, xalq farovonligi uchun chin dildan harakat qilishi nihoyatda ta'sirchan holda ifodasini topgan. Oybek qahramonlar karakterini ochar ekan, har bir personajga alohida w'tibor qaratadi. Shuning uchun ham asardagi qahramonlarning har bir individual nutqiga ega. asarda tasvirlangan ijodkorlar, sarkardalar, dehqonlar, saroy amaldorlari, navkarlar, kosib-u hunarmandlarning har biri o'zigagina xos til bilan ta'rif etilgani asarning ravon o'qilishini ta'minlagan. Romanni o'qish jarayonida kitobxon ko'z oldida buyuk Navoiy yashagan davrdagi odamlar, sharoit, ularning o'ziga xos turmush tarsi, quvonch-u tashvishlari, ruhiy olami gavdalanadi. Bu hol yozuvchining yuksak tasvir mahoratidan dalolatdir. Asarda Oybekning asosiy maqsadi Navoiyning shoir, davlat arbobi, ulug' inson sifatidagi obrazini mukammal yaratishdan iborat edi. Muallifning talqinicha, bu buyuk dahoning ana shu uchala qirrasini o'zaro birlashtirib turadigan umumiylik uning insonparvarligi hisoblanadi. Adib Navoiyning insonparvar shoir va davlat arbobi sifatidagi karakterini yaratishda tarixiy shaxslar obrazi bilan birga, badiiy to'qima obrazlarni ham asarga olib kirdi. Bularning eng asosiylari: Navoiyning shogirdi Sultonmurod, Arslonqul, Dildor singari qahramonlardir. Bu personajlar asarda asarda oddiy xalq vakili sifatida ishtirok etadilar va shoirning ulug' inson, ijodkor, davlat arbobi sifatidagi karakterini ochishga ko'maklashadi. Asardagi Husayn Boyqaro, Nizomulmulk, Behzod, Majididdin, Jomiy singari obrazlar esa tarix sahifalaridan kirib kelgan. Yozuvchi bu qahramonlarni yartishda bevosita tarix haqiqatiga suyangan.

“Navoiy” romani voqealari Alisherning Samarqanddan Hirotga qaytishi bilan boshlanadi va Navoiyning o'limi bilan o'z nihoyasiga yetadi. Asarda Navoiy umrining, ijodining eng gullagan damlari qalamga olinadi. Uning oliyjanoblighi, o'ziga xos fazilatlar, Vatan, Xalq va adabiyot oldidagi yuksak xizmatlari, saroy muhiti va unda Navoiyning tutgan o'rni, bek va bekdodalar bilan shoirning munosabati kabilar tasvir etiladi. Bundan tashqari, asarda faqat Navoiy ijodigagina nazar tashlanmasdan, balki o'sha davrda yashagan asl shoirlar va o'zini shoir hisoblovchilar haqida ham fikr yuritiladi. Bu ko'proq Navoiyning uyidagi san'at kechalari, suhbat va majlislar ko'rinishida namoyon bo'ladi. Asarning bir qancha yerida Navoiyning turkiy til va adabiyotga bo'lgan munosabati tasviridan unumli foydalangan. Shoir Binoiy, Mavlono Shahobiddin kabilarning turkiy til va forsiy til haqidagi fikrlari va Navoiyning ularga qarata aytgan dalilli javoblari shoirning o'z tiliga bo'lgan muhabbatini oynaday namoyon qiladi. Mavlono Shahobiddin turkiy til haqida gapirar ekan: “- har holda ba'zi shuaroningfb bu boradagi harakatlarida oz ma'no ko'rurmen...Sopalak tosh bilan Badaxshon la'li va aqiqi boshqa-boshqa narsadir”, - deydi. Binoiy esa quyidagi o'xshatish orqali turkiy tilga “baho beradi”: “Hammalaringiz Chorsu orqasidagi bizning chapdast temirchilar ko'chasidan o'tgansizlar, ularning “taraq-turuqi” quloqlarga miq qoqandan battar azob berur. O'zbek g'azallarini tinglaganda ayni shu azobni his eturmen”.



Shu o'rinda ahamiyat berish kerakki, Oybek bu ikki personaj nutqi orqali faqatgina til haqidagi qarashlarni emas, balki ikkita xarakterni ochib berishga ham harakat qiladi. Personaj nutqi o'quvchiga uning salbiy xarakterini yana ham oydinroq ko'rishga turtki beradi. Muallif qahramon xarakterini ochishda ko'p unsurlardan, jumladan, personaj nutqi, portret, qahramonga boshqalarning munosabati kabilardan ham juda o'rinli foydalangan. Masalan, asardagi to'qima obraz hisoblangan To'g'onbek portretini muallif shunday chizadi: "U yo'g'on, chorpaxil gavdali, dakkam-dukkan qizg'ish mo'ylabli, keng qoramtir yuzining yonoqlari bo'rtgan, qisiq ko'zlari ayyorcha beqaror". Ziyrak kitobxon shu o'rinda To'g'onbekning ko'zlariga e'tibor qaratadi. Uning "ayyorcha beqaror"ligini asar davomida yana ham teran anglab boradi. Yana shu narsani aytib o'tish lozimki, adib to'qima obrazlarda personajning salbiy yoki ijobiy xarakterini ochishda o'zi individual yondoshgan bo'lsa, tarixiy obrazlarda esa, tarixiylikdan uzoqlashmagan holda biroz ijodiylik bilan qahramon portretini tasvirlaydi. Bunda, ayniqsa, haqiqiy xarakterga aylana olgan Navoiy va Husayn Boyqaro obrazlari alohida ahamiyat kasb etadi. "Qomati o'rtadan baland, ingichka, lekin gavadasi pishiq, barmoqlari uzun va nafis; qora va qisqa soqolli, xushbichim miyiqqlari tekis va silliq; yonoqlari chiqiqroq, kenggina yuzida doimiy tafakkurning asl ma'nosi, ma'naviy qudrat va yengil, go'zallashtiruvchi bir horg'inlik jilvalanadi. Qabariqroq qovoqlari ostidagi qiyg'och ko'zlarida go'yo tafakkur va xayol bilan birga qandaydir iroda kuchi ifodalanadi",<sup>2</sup> - deya Navoiy ta'rifi keltiriladi. Muallif "she'riyat quyoshi"ning portretini chizar ekan, uning yuzidagi doimiy tafakkurga, ko'zidagi iroda kuchiga alohida e'tibor qaratadi. Ayniqsa, barmoqlarining uzun va nafisligini ham "qistirib" o'tadi. Odatda, san'atkor odamning barmoqlari shunday bo'ladi. Bu esa, Navoiy ham musiqiyda anchagina yuksak bilimga ega bo'lgani, o'zi mustaqil bir nechta sozlarni chala olganiga ishoradek go'yo. Asarda husayn Boyqaro, Xadichabegim, Mo'min Mirzo, Darveshali, Mavloni Sahahobiddin, binoyi, Majiddiddin kabi tarixiy shaxslar obrazi ham berilgan bo'lib, g'oyat ustalik bilan yaratilgan bu obrazlar Navoiy xarakterini ochishda muhim o'rin tutadilar. Bu obrazlarning barchasi o'sha davr hayotini ochishda muhim o'rin tutadilar. Sababi shuki, muallif bu obrazlar vositasida o'sha davr muhitini haqqoniy aks ettira bilgan. "Navoiy" romanida Husayn Boyqaroning Badiuzzamonga qarshi jang qilishi, nabirasi Mo'min Mirzoni qatl ettirishga buyruq berishi kabi fojiali voqealar, konfliktlar g'oyatda ta'sirli qilib ifodalangan.

Romanda tarixiy shaxslar bilan bir qatorda, Dildor, Arslonqul, Sultonmurod, Zayniddin, To'g'onbek kabi badiiy to'qima obrazlar ham qatnashgan bo'lib, ularning har biri asarda o'z o'rniga va bajaradigan vazifasiga ega. Masalan, Arslonqulning asardagi kichik bir vazifasini olaylik. U Navoiy qurdirayotgan madrasaga kelib ishchi bo'lib ishlaydi. Muallif oddiygina shu voqeani keltirish orqali Navoiyning bunyodkorlik ishlari, maqbarayu

<sup>2</sup> Oybek. Navoiy. T.: 1995. 31-bet



madrasalar qurdirgani haqida, uning ko'lami to'g'risida o'quvchiga ma'lumot berib ketadi. Oybek bu obrazlar orqali o'sha davrdagi muayyan ijtimoiy guruhlar hayotini ham ochib beradi. Shuningdek, bu qahramonlar orqali Navoiy xarakterini, uning fazilatlarini yanada oydinroq his qilish imkoni tug'iladi. "Navoiy" romanida XV asr uchun xos bo'lgan xilma-xil voqea-hodisalar, tipik qahramonlar, rang-barang obrazlar yaratildi. Hayot haqiqati badiiy haqiqatga aylantirildi. Bunda muallif, psixologik tahlildan, har bir personajning o'ziga xos fe'l-atvorini va individual tilini berish san'atidan, til imkoniyatlaridan o'z o'rnida va yuksak mahorat bilan foydalana bildi. Shunga ko'ra asardagi har bir qahramon o'z xarakteri va individual tili va e'tibori bilan bir-biridan o'zaro farqlanib, ajralib turadi.

Bilamizki, har qanday epik asar konfliktidan holi bo'lmaydi. Agar unda konflikt bo'lmasa, asar saviyasi past deb baholanadi. Ayniqsa, roman janridagi asarlarni konfliktisiz tasavvur qilish juda mushkul. Bu janr katta hajmli bo'lganligi sababli ham unda bir necha o'nlab konfliktlarni uchratish mumkin. U xarakterlar o'rtasida, shaxs va jamiyat o'rtasida va insonning o'z o'zi bilan ichki kurashi bo'lishi mumkin. Oybekning "Navoiy" romanida ham konfliktning turli ko'rinishlari namoyon bo'ladi. Yozuvchi ushbu ziddiyatlardan voqealar rivojini yanada qiziqarliroq bo'lishi uchun va qahramonlar xarakterini ochish uchun foydalangan. Iste'dodli adib, konfliktning yuqorida keltirilgan har uchala turidan ham unumli foydalana bilgan. Avvalo, asarda Navoiy va saroy amaldorlari o'rtasida konflikt bor bo'lib, bu xuddi ezgulik va yovuzlik, yoki adolat va adolatsizlik kurashiga o'xshaydi. Hazrat Navoiy hamisha ilm-fan, san'at ravnaqi uchun kurashadi. Adolat ustuvorligi uchun jonini ham ayamaydi. Lekin faqatgina xazinani talash, yuqori mansabga ega bo'lishnigina ko'zlaydigan saroy amaldorlari Navoiyga goh oshkora, goh pinhona

adovatda, konfliktda bo'ladilar. Ayniqsa, parvonachi Nizomulmuluk, vazir Majididdin, uning xizmatidagi To'g'onbek obrazlari shoir bilan bosha-boshqa dunyo. Ular faqatgina molidunyonini, mansabni, bir so'z bilan aytganda o'z nafsining quli bo'lib, bu yo'lda hech narsadan qaytmaydi, har qanday yovuzlikka qo'l uradilar. Buni Amir Mo'g'ul, Majididdin, Nizomulmuluk, Xo'ja Abdullo xatib kabi yomon niyatli kimsalar birlashib, Husayn Boyqaroga Navoiyni yomonotliq qiluvchi imzosiz xat yozishganligidan ham ko'rishimiz mumkin. Konfliktning birinchi chizig'i Navoiy va saroy amaldorlari o'rtasida bo'lsa, ikkinchi chizig'i Navoiy va chalasavod olim va shoirlar o'rtasidagi konfliktidir. To'g'ri, Navoiy ularga dushman nazari bilan qaramaydi, yoki bunday munosabatda bo'lmaydi. Lekin bu kurash oshkora bo'lmasa ham ilm va ilmsizlik kurashidir. Masalan, mavlono Shahobiddin shunday olimki, hech narsaga aqli yetmaydi. Faqatgina majlislarda davra to'riga chiqib, viqor bilan o'tirishni qoyil qiladi, xolos. U mantiq, riyoziyot, ilmi tib kabi fanlarning ochiq dushmani. Bu fanlarni odamni to'g'ri yo'ldan adashtiradi, fikrini buzadi deb o'ylaydi. She'riyat ilmi haqida gap ketganda esa, turkiy tilda hech narsa yozish mumkin emas, adabiyotning eng asosiy tili forsiy tilda degan fikrda bo'ladi. Asardagi konfliktlar va faqatgina Navoiy va boshqalar o'rtasida



bo'lib qolmay, Yodgor Mirzo va Husayn Boyqaro o'rtasidagi konflikt, toj-u taxt kurashlari, o'zaro ziddiyatlar ham asar mazmunini ochishga hissa qo'shadi. Asli Yodgor Mirzo davlat ishlarini yaxshi anglamaydigan, o'yin-kulgudan bo'shamaydigan g'o'r bir bola. Lekin uni taxtga chiqishini xohlagan kuchlar poodshoning yoshligidan foydalanib davlat boshqaruvida o'z so'zlarini o'tkazishga, yoki yuqoriroq lavozimni egallashga harakat qiladilar. Natijada Husayn Boyqaro va Yodgor Mirzo o'rtasida bir necha marta keskin ziddiyatlar, janglar bo'lib o'tadi. Birinchi jangda Husayn Boyqaro qo'shinlari yengilib, qochishga majbur bo'ladi. Yodgor Mirzo o'zini hukmdor deb e'lon qiladi va nomini xutbaga qo'shib o'qittiradi. U uchun Hirot darvozalari berkilgan Husayn Boyqaro sakkiz yuz nafar yigiti bilan anchayin sarson-sargardonlikda kun kechiradi va yangi hukmdorga qarshi kuch to'play boshlaydi. bu jangda xatto Navoiy ham duvyuraklik, jasurlik ko'rsatadi va Yodgor Mirzo yashayotgan qal'aga birinchi bo'lib qilich ko'tarib boradi. Husayn Boyqaro va Yodgor Mirzo o'rtasidagi bu to'qnashuv Yodgor Mirzoning qatl etilishi va Husayn Boyqaroning taxtga chiqishi bilan nihoyasiga yetadi.

Oybek "Navoiy" romanini yozishda hech narsani ko'zdan qochirmaslikka harakat qildi. Har bir personaj xarakteriga, nutqiga, uning portretiga, peyzajga alohida e'tibor bilan yondoshdi. Asardagi konfliktlar uning qiziqarli bo'lishini ta'minladi. Ushbu konfliktlarning ayrimlari tarixiy fakt asosida yaratilgan bo'lsa, ayrimlari muallifning ijodiy yondoshuvi, badiiy to'qima asosida, syujet liniyasini harakatlantirish uchun o'ylab topilgan. Lekin ularning hech biri tarixiy haqiqatdan uzoqlashib ketmagan. Bu esa asarning tabiiyligini, ishonarli ekanligini ta'minlagan. Romanda shunday bir konflikt borki, u bir qarashda ikki shaxs orasidagi konfliktdek ko'rinadi. Ammo u bevosita ijtimoiy konflikt hamdir. Bu Dildor va To'g'onbek, Arslonqul va To'g'onbek o'rtasidagi konfliktdir. Kunlarning birida To'g'onbek soliq yig'ish maqsadida atrof qishloqlarga boradi. U yerda bir kampirning uyi oldida to'xtab, unga ovqat tayyorlashni buyuradi va shu joyda kampirning nabirasi Dildorni ko'rib qoladi. Uni sevib qoldi desak xato qilgan bo'lamiz, albatta. Dildorga shaytoniy nafs bilan qaraydi va fikri buziladi. Kampir ham buni sezganday Dildorga bu yerdan panaroqda yurishini tayinlaydi. Bir kuni tunda To'g'onbek ikki yigiti bilan kelib qizni olib qochadi. Bechora kampir esa bo'zlab qolaveradi. To'g'onbek, dastlab, Dildorni o'zida saqlaydi va keyinroq Majididdinga yaxshi ko'rinish maqsadida unga in'om etadi. Majididdin esa podshoh uyushtirgan ziyofatlarning birida uni hukmdorga tortiq etadi. Bu davrda qizlarning taqdiri (ayniqsa, kambag'alning chiroyli qizlari) sariq chaqaga arzilmas edi. Xuddi shu narsa Dildor va jamiyat o'rtasida, Dildor va To'g'onbek o'rtasida konflikt keltirib chiqaradi. Bu go'zal o'z qishlog'idagi Arslonul ismli, haiqiy arslonkelbat yigitga unashirilgan, ular bir- biriga ko'ngil bog'lagan edilar. Faqat yo'qchilik sababli to'y qilishni biroz orqaga surgan edilar. Suyganini yovuz niyatli kimsalar tomonidan o'g'irlab ketilganini eshitgan Arslonqul uni izlab bir necha shaharlarga, jumladan, Hirotga keladi. Dildorni To'g'onbek ismli yovuz o'g'irlaganini bilgach,



uni izlay boshlaydi. Asardagi bu kabi katta va kichik konfliktlar bevosita asarning jozibasini oshiradi, uni yanada o'qishli qiladi va voqealar rivojining keskinligini oshiradi. Bu jihatdan iste'dodli yozuvchimiz Oybek katta mahorat egasi ekanligi namoyon bo'ladi.

Xulosa qilib aytganda, Oybek romanda buyuk ijodkor va u yashagan tarixiy davrni tasvirlash orqali bugungi kun kitobxonini o'tmishdagi achchiq haqiqatlardan saboq olishga, Vatan, xalq va el-yurt manfaatini har narsadan ulug' qo'ygan ulug' siymolar va ularning yaxshi insoniy fazilatlari haqida ibrat olishga chorlaydi. Asarning tarbiyaviy va g'oyaviy ahamiyati negizida ham xuddi shu narsa yotadi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Oybek. Navoiy. T.: 1995.
2. Quronov D. Roman haqida ayrim mulohazalar // "Sharq yulduzi", 2011-5.
3. Qozoqboy Yo'ldosh. Roman va bugungi o'zbek romanchiligi // "Sharq yulduzi", 2011-4.
4. Бобоев Т. Адабиётшунослик асослари. Т.: 2002.
5. Толстой А.О. литературе. –М.Художественная литература. 1956.